O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 10 - fevral 80-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PQ–107-sonli qarorining ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–107-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PQ–107-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

mamlakatda sud tizimini demokratlashtirish, sudlar faoliyati shaffofligini ta’minlash, aholi bilan muloqotni kengaytirish va odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik rolini kuchaytirishga qaratilgan salmoqli ishlar bajarilganligi, Oliy sudning rasmiy veb-saytida barcha sud qarorlari doimiy ravishda e’lon qilinmoqda, sudlar o‘z qarorlarining mazmun-mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirib kelayotganligi, sud raislari har chorakda ommaviy axborot vositalari bilan brifinglar o‘tkazmoqda:

jamiyatda ma’muriy sudlarga bo‘lgan ishonchni yanada oshirish maqsadida davlat organlari tomonidan sud qarorlari ijro etilishi ustidan nazoratning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etilishi belgilab o‘tilgan.

3. Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi (A.Mixmanov) belgilangan muddatda viloyat hokimligida fuqarolar qabuli uchun alohida maxsus xonaning sharoitlarini ko‘rib chiqib, mavjud kamchiliklarini bartaraf etsin.

4. Viloyat hokimligi matbuot kotibi (G‘.Sheraliyev), Nurafshon TV (O.Begaliyev), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish boshqarmasi (Z.Eraliyeva) Ma’muriy ishlar bo‘yicha viloyat sudi (A.Ernazarov), shahar va tuman hokimliklariga:

O‘zbekiston Respublikasining yuqoridagi qarori 5-bandiga muvofiq belgilangan muddatlarda, mahalliy ijro hokimiyati organlari binolarining fuqarolar qabuli uchun ajratilgan maxsus joylarida ma’muriy sudlarning ijro organlari faoliyatida qonuniylikni ta’minlashdagi o‘rni va ular tomonidan ko‘riladigan ishlar haqida tushuntirish beradigan bannerlarning ko‘rinarli qilib joylashtirilishini hamda ijtimoiy roliklarning doimiy asosda namoyish etilishini tashkil etilishini hamda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ma’muriy yustitsiya, uning ahamiyati hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilishda samarali huquqiy mexanizm hisoblanishi bo‘yicha temetik ko‘rsatuvlar hamda ijtimoiy roliklarning doimiy ravishda namoyish etilishini ta’minlasin;

mazkur qaror ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotlarni joriy yil 20-fevraliga qadar viloyat hokimligi Murojaatlar bo‘limiga taqdim etish yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Fayziyev zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**